



MUSIQA TA'LIMINING O'QUVCHI-YOSHLARNI AXLOQIY -ESTETIK TARBIYALASHDAGI IMKONIYATLARI

Oripova R.

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI "Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar
va jismoniy madaniyat" kafedrasini mudiri, p.f.n., dotsent*

Tayanch so'zlar: musiqa, milliy meros, musiqa ta'limi, хотира, tasavvur, ijodkorlik, maqom, shashmaqom, badiiy-estetik, ta'lim-tarbiya, g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy, axloqiy.

Ключевые слова: музыка, национальное наследие, музыкальное образование, память, воображение, творчество, маком, шашмаком, художественно-эстетическое, обучение и воспитание, идейно-политическое, духовный, нравственный.

Key words: music, national heritage, musical education, memory, imagination, creativity, maqom, shohmaqom, aesthetical, education, ideological and political, moral.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada musiqa ta'limidan, davlat standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, хотирани mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi, shuningdek, musiqiy ta'lim-tarbiya asosida milliy musiqa merosimizni o'rganish, musiqa darslarini va sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье раскрывается, как через музыкальное образование на основе государственных стандартов содержания нового образования совместно с музыкальными знаниями и навыками учащихся происходит развитие наблюдательности, укрепления памяти, образного представления, творчества, самостоятельности, инициативности, художественного и музыкального вкуса, как фактора развития, а также, вопросы изучения музыкального наследия, проведения музыкальных уроков и развитие системы внеклассного музыкального воспитания.

SUMMARY:

The issues of influence of musical education, new national standards of education on learning musical knowledge and skills of pupils, development of their attentiveness, improvement of their memory abilities, creativity, figurative imagination, musical taste; and also the issues of learning musical heritage, organization of musical lessons and development of optional course musical education are described in this article.

Bugungi o'zligimizni anglash o'z taqdirimiz va farzandlarimiz istiqbolini yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan mustaqil O'zbekistonda milliy madaniyatimizni

o'ziga xosligini tiklash umumta'lim maktablarida yoshlarni badiiy tarbiyalash va kamol toptirish, hamda hozirgi kunimizni to'laroq idrok etish uchun eng avvalo tariximizni yaxshi bilmoqlik hisoblanadi. Chunki, har bir yangilik, tarixiy bog'lanish orqali amalga oshiriladi. Barcha fanlar qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartlarini joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatida o'z aksini topadi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos, takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Musiqa ta'limidan, davlat standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Demak, yosh avlodni yetuk qilib tarbiyalashda «Musiqa madaniyati» darslarini ahamiyati katta. «Musiqa madaniyati» darslari o'quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ulardagi go'zallikka bo'lgan his-tuyg'ularini o'stiradi, musiqa san'atiga mehr-muhabbat, qiziqish uyg'otadi, ona-Vatanni sevishtga, bir-birini, kattalarni hurmat qilish, mehnatni, tabiatni sevishtga, qadrlashga o'rgatadi va hayotda o'z o'rnini topa olishga madad beradi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, musiqani idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash va raqsga tushish, ijodkorlik malakalarini shakllantirish, musiqa tarbiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilar iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoit yaratib berish va ularning badiiy ehtiyojlarini qaondirish musiqa ta'lim-tarbiyasining vazifasini tashkil etadi. Hozirgi musiqiy ta'lim-tarbiyasi, shuni ko'rsatadiki, milliy musiqa merosimizni o'rganishda, musiqa darslarini va sinfdan tashqari musiqa tarbiya tizimini ahamiyati katta. Darsni qiziqarli bo'lishi uchun musiqa ijodkorligi qo'llanildi, barcha musiqa faoliyatlari (xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash) dars mavzusining ajralmas qismi va mantiqan uzviy bog'lanib o'tiladi.

«Dars» - ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning eng qulay va samarali shaklidir. Jamiyatimizning turli jabhalarda bo'layotgan siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy, ma'rifiy o'zgarishlar barcha fanlar qatori musiqa darslarining mazmuni va metodikasiga ham yangi zamonaviy talablar qo'yildi:

1. Darsda ta'limiy-didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni bilish va ularni amalga oshirish.

2. Darsda ta'limning faol usul va uslublaridan foydalanish.



3. Dars jarayonida xalq pedagogikasi an'analarini, jahon pedagogika va psixologiyasi, san'atimiz, buyuk ajdodlarimiz o'g'itlari, rivoyatlarimiz, hikmat to'la hadislarimizdan unumli foydalanib borish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, keyingi yillarda tajribali metodistlar, olimlar va amaliyotchi o'qituvchilarning o'quv jarayonini tahlil qilish sohasida, o'tkazilgan va didaktik shart-sharoitlarga bog'liq ekanligi ko'rsatmoqda, Eng muhim shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

1. Darsliklar, qo'llanmalar, dastur, tavsiyanomalar, didaktik va metodik ko'rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanish.

2. Sinfda ijobiy psixologik muhit bo'lishi.

3. O'qituvchi va o'quvchilar orasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish.

Ushbu pedagogik shart-sharoitlarga amal qilib, darsning maqsadi va mavzusi, to'g'ri tashkil qilinsa, dars sifatli va samarali bo'lishi mumkin.

Talabalarimizni olgan nazariy bilimlari bilan birga amaliy mashg'ulot o'tkazgan darslari va o'quv-tarbiya mashg'ulotlarida guruhning barcha talablari, o'qituvchi ishtirokida tahlil va muhokama qilishlari lozim. Tahlil jarayonida, eng muhimi talaba o'zining dars o'tkazuvchi o'qituvchi sifatida tasavvur qilib, o'z ishini uddasidan qanchalik chiqa olishini to'g'ri baholay olganidadir. Talaba tomonidan o'tkazilgan darslarning va tarbiyaviy ishlarning tahlili, odatda o'z-o'zini baholashda, o'zini hisobotini reja va konspektalarni tahlil qilishdan o'z ishini baholay olishdan boshlanadi. Metodist-o'qituvchi amaliyotchi-talabaga metodik yordam ko'rsatish va maslahatlar berib kamchilik va yutuqlarni aniqlab to'g'ri yo'l ko'rsatishi lozim. Bunda eng asosiy maqsad talaba - yoshlarimizni qobiliyat va imkoniyatlarini aniqlab to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir.

Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning sotsial tuzumiga xizmat qiladi. Shuning uchun musiqa tarbiyasi mustaqil mamlakatlarda e'tiqod uchun xorijiy mamlakatlarida esa burjua demokratiyasi uchun xizmat qiladi. Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikani didaktik qonuniyatlariga va shu xalqning milliy musiqa madaniyati, tili va madaniy an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi. Horijiy mamlakatlarda yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Davlat maktablari bilan birga shaxsiy maktablar, kollejl va oliy ta'lim dargohlari mavjud bo'lib, ularda turlicha darajada estetik tarbiyani amalga oshirishda o'qituvchiga keng ijodiy erkinlik berilgan. O'qituvchi o'zining maktab sharoiti, imkoniyatlari va o'quvchilarning bilim darajasiga qarab dasturga o'zlashtirishlar kiritishi mumkin. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda san'at orqali hayotni o'rganish va unga shaxsiy munosabat bildirish, ijodiy munsabatda bo'lish malakalarini rivojlantiradi. Musiqa darslarida yuksak rivojlangan texnik



vositlardan keng foydalaniladi. O'quvchilar elektroorganlarda chalib kuylaydilar, turli faoliyatlarni (aytishuv, harakatlar, bir-biriga jo'navozlik qilishlarni) bajaradilar.

Bunda asosan o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni ro'yobga chiqarishdan iborat. Jumladan, AQShda yagona davlat dasturi yo'q. Musiqa ta'limi «estetika» sifatida o'tiladi. Unda musiqa, tasviriy san'at va mehnat mazmunan bir-biri bilan bog'langan. Davlat maktablari bilan birga diniy hamda shaxsiy dunyoviy maktablar ham mavjud. Shuning uchun har bir shtatda davlat maktablarida, shaxsiy va diniy maktablarda o'quv soatlarini ham bir xil emas, o'rta hisobga I-VII-sinflarda haftasiga 1-2 soatdan dars o'tiladi. Darsdan tashqari har bir o'quvchi musiqa to'garaklariga (xor, orkestr, raqs, VIO) a'zo, deyarli har bir maktabda simfonik orkestr mavjud.

Yaponiyada ham yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Yaponiyada musiqa tarbiyasining o'ziga xos sistemasi vujudga kelgan. Ularda bolalar bog'chasidan oliy ta'limgacha estetik tarbiya amalga oshiriladi. Estetik tarbiya intengratsiya qilingan fan bo'lib, unga musiqa, tasviriy san'at va mehnat uzviy birlashgan. U bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- a) 1-5 yoshgacha bolalar bog'chasida;
- b) 6-14 yoshgacha to'liqsiz o'rta maktab;
- v) 15-18 yosh o'rta maktabi;
- g) 18-23 yosh oliy ta'lim maktabi.

Bolalar bog'chasida «Suzduki» tizimi mashhurdir. Uning tizimida ona tilini o'qitilishi, musiqa tinglab idrok etishi bilan amalga oshiriladi. Bolalar cholg'u asboblarda kuy chalishlari muhim rol o'ynaydi. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning onasi ham ishtirok etadi. Mashg'ulot mazmuni va maqsadidan ogoh bo'ladi va oilada o'z ovozi bilan shug'ullanadi. Suzduking ta'birida onalar musiqa ma'lumotiga ega bo'lishi shart emas. Oilada gramzapis, televidenie, konsertlarda tinglangan asarlarni muhokama etadilar. Bunda va oilaning hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Natijada 5-6 yoshli bolalar Betxoven sonatalarini chalishga erishdilar. Yuqori sinflarga ko'chgan sari estetik tarbiya ham bir predmet singari murakkablashib boradi. Yuqori sinflarda rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va musiqa san'ati tanqidchilari yetishadi.

O'zbekistonda musiqaning milliy axloq me'yorlari orqali uning ijtimoiy hayotdagi o'rnini anglash vositasida milliy ruhiyat tuyg'usini singdirish asosiy maqsadimizdir:

- musiqa fani sohasida qo'llanilayotgan texnika va texnologiyalar orqali yangi kashfiyotlar va yutuqlar bilan xabardor etish faxr-iftixor tuyg'usini shakllantirish asosida milliy ruhiyati tarbiyalanadi;

- jismoniy kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot va matonat bilan tarbiyaviy ishlarda qatnashishi orqali milliy ruhiyati tarkib toptiriladi;



- estetik did, his tuyg'uni paydo qilish, ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari, go'zallik tuyg'ularini tarkib toptirish orqali milliy ruhiyati shakllantiriladi;

- jamiyat taraqqiyotida, inson faoliyati va tabiat voqea-hodisalarining tarixiy-tadrijiy rivojlanishida ular muvozanati masalalarini tushuntirishda musiqa o'rni orqali milliy ruhiyati tarbiyalanadi;

- mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlik, bozor siyosati, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish masalalari inson mehnati bilan yaratilgan moddiy boyliklarni asrash va ko'paytirish borasida tarixiy tajribalardan foydalanishga bag'ishlangan tadbirlarda musiqa vositasida milliy ruhiyati shakllantiriladi;

- ijtimoiy – huquqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni haqidagi tushunchalarni singdirish, huquqiy munosabatlar mohiyati haqida tasavvurga ega bo'lishda huquqiy ong, huquqiy faoliyatni tashkil etishda musiqa orqali milliy ruhiyati tarbiyalanadi;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlatchilik, davlat organlari faoliyati, Davlatimiz ichki va tashqi siyosati haqida ma'lumotga ega bo'lishida musiqa vositasida milliy ruhiyati shakllanadi.

Mazkur ishlar quyidagi tarbiya tamoyillariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi:

1. Musiqiy tarbiya maqsadining aniqligi.
2. O'quvchi va o'qituvchilarning, ta'lim muassasasi bilan boshqa mutasaddi tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyati.
3. Musiqaning o'quvchi – shaxsining o'z-o'zini anglashga yo'naltirishda muhim omil ekanligini anglashi.
4. Tarbiyaning shaxsga yo'naltirilganligi, ya'ni o'quvchi shaxsining xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos xarakteri, qadr-qimmatini anglash tuyg'ularining shakllantirib borilishi.
5. Tarbiyaviy ishlarining erkin, ixtiyoriy tashkil etilishi.
6. Tarbiyaviy ishlarning jamoaviy yo'nalish kasb etishi asosida milliy ruhni tarbiyalashning samarali amalga oshishi.

Adabiyotlar:

1. Музыка ўқитиш методикаси (Маърузалар матни). Тузувчи Г.М.Шарипова. –Т: 2000-йил.
2. Эстетик тарбия асослари. Н.А.Кушаев таҳрири остида. –Тошкент: -Ўқитувчи, 1988-йил.
3. Халабузарь П., Попов В., Добровольская Н. Методика музыкального воспитания. –М: -Музыка, -1990 г.
4. Ўзбек халқ музыкаси I-II-томлар. –Т.: Ўзбекистон Давлат Бадиий адабиёт нашриёти. 1957-йил.
5. Орипова Рано, and Раъно Орипова. "Өзбек ұлттық классикалық музыкасындағы ұлттық мотивтердің түрлері колорит национальных мотивов в узбекской национальной классической музыке." К 89 XXI ғасырдағы түркі халықтарының ұлттық орындаушылық өнері: зерттеу (2022): 199.
6. Oripova R. I. "Ways to develop the pedagogue's competence in improving the quality of education. StoneDAU." Pedagogy, psychology and teaching methodology.